



HALIMA AHMAD MANSURALARI HAQIDA MULOHAZALAR

Hoshimjon Ahmedov,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Ahmedov.hoshim60@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206869>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek shoirasi Halima Ahmadning “Yosuman gulining soyasi” kitobiga kirgan mansuralari (nasriy she‘rlari) haqida fikr yuritiladi. Ulardagi poetik ifoda o‘ziga xosliklari, mazmun va shakl munosabati, shoira mahorati kabi masalalar tahlilga tortiladi. Mansuralarning badiiy xususiyatlari borasida mulohazalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Halima Ahmad, mansuralar, poetik mahurat, janr, lirik qahramon.

Badiiy ijod bu qadimiy hayot oqimi kabi muttasil o‘shish va o‘zgarishda bo‘ladi. Chunki bu dunyoda vaqtning hukmidan tashqari hech narsa yo‘q. Badiiy aks ettirishning usul va vositalari ham mudom tadrijiy rivojlanishda bo‘ladi. Cho‘lponning “bari bir xil” deya zorlanishi ham aslida uzoq vaqt xizmat qilib kelayotgan nasr va nazm qoidalarining ma‘lum bir davrga kelib, eskirganday, ijodkor ko‘nglini qoniqtirmay qolishi haqida edi. Taniqli shoira Halima Ahmad ham o‘zini bir adabiy tajribada sinab ko‘rdi. Bu - nasriy she‘rlar, yoki Abdulla Ulug‘ ta‘kidlagandek - mansura. “Bu asarlar bilan tanishayotganda kishining tuyg‘ulari titroqqa tushib, hissiyotlari junbishga keladi. Chunki bu asarlarda muallif hayotga tuyg‘u ko‘zi bilan qaraydi. [1, 6]. Quyida mana shu eksperiment - poetik tajribalar haqida baholiqudrat fikr yuritamiz.

Tahlil, talqin va mulohazalar.

“Proza she‘riyatsiz g‘arib va dag‘al. She‘r – nutq laboratoriyasi. She‘riyat – she‘riyat degan nom bilangina yashamaydi axir, chunki u nutq qurilish usuli, mazmun hosil qilishning faol usuli” [2. Eyxenbaum B. O literature. s. 446.].

“She‘r – ma‘lum o‘lchovli nutqdir. Bu o‘lchanganlik har bir she‘riy asarda mavjud ritm orqali ro‘yobga chiqadi. Ritm – she‘riy nutqdagi muayyan bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir o‘lchovda takrorlanib kelishidir. Ritm – adabiy asarda sezilarli ohangdorlikning mavjudligidir” [3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T, 1980. 291-bet.]. Vazn esa “ritmning konkret she‘riy asardagi ko‘rinishi yoki she‘riy nutqni o‘lchaydigan mezon”. (Izzat Sulton, 291-bet). She‘riy nutq dastavval uch asosiy mezon asosida yuzaga keladi: vazn, ritm, qofiya. Aristotel ham ayni shu unsurlarni ta‘kidlab o‘tgan: “Biroq ba‘zi bir san‘atlar borki, ular hamma aytganlardan, ya‘ni ritm, ohang va vazndan foydalanadi”. [4. Aristotel. Poetika. 1980.



9-bet.]. Sharqning mashhur faylasuf-olimlaridan biri – Abu Nasr Forobiyning fikrlari ham yuqoridagi keltirganlarga hamohang. Ya'ni “so‘zlar biror narsaga qilingan taqliddan tashkil topgan bo‘lsa, lekin ular biror ohang bilan vaznga tushirilgan bo‘lmasa unday tizma so‘zlar she‘r sanalmaydi, balki bundaylar she‘riy so‘z – mulohaza deb yuritiladi xolos”. [5. Farobiy Abu Nasr. She‘r san‘ati. T 1979, 15-bet.]. Farobiyning fikricha, faqat vaznga tushirilgan so‘zlargina she‘r bo‘ladi. Aftidan olim qat’iy she‘riy qoliplarga asoslangan tizimlarni nazarda tutgan.

Vaqt o‘tishi bilan ijodkor odam o‘zini takrorlashdan cho‘chiydi. Ana shunday paytlarda boshqa she‘riy shakllarga murojaat qiladi odatda. Yo mazmundagi, yoki shakldagi o‘zgarishlar ijodkorga ma‘lum ma‘noda yangicha poetik ifoda uchun imkon beradi. Shu vajdanmi shoirlar ba‘zida yangicha janrlarda o‘zini sinab ko‘radilar. Jumladan shoira Halima Ahmad ham mansuralardan tashkil topgan asarini chop ettirdi.

Aslida mansura taniqli adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov nomi bilan bog‘liq. Saksoninchi yillardayoq u kishi “Iltijo” mansuralar kitobini e‘lon qilganlar. [6.]. Undan oldin ham, keyin ham mansuralar yozilgan. Ammo ularning soni ko‘p emas edi. Mana Halima Ahmad ham bu janrda o‘zini sinab ko‘rdi.

“Yo‘qolish” mansurasidan: “Bir kuni yo‘qolib qoldim. Oniy bir lahzada shunday bahaybat dunyoning kichkina qora bir nuqtaga aylanganini sezdim xolos. “Shunday katta dunyoki kichik bir nuqtaga aylangan bo‘lsa, mening nimagadir aylanishimga hojat qoldimikan?” o‘yladim o‘sha damda” deya boshlanadi hikoya. Va shu lahzadan boshlab muallif “o‘zini izlashga tushadi”. “Bir tomonda hayot o‘zining yolg‘on go‘zalligini ko‘z-ko‘z qilish bilan ovora. Bir tomonda cheksiz sarobot”. “Yo‘qolganning” yo‘lidan lo‘li ayol chiqadi, undan so‘raydi o‘zini. U uzoq titkilab irvit xaltasidan uni topolmaydi. “Shoxlarining panjasi axlat qutisiga tegib turgan” daraxt ham axlat qutisidan axtarib topolmaydi. “Yunusbaliq” go‘shini yaxshi ko‘radigan sohildagi baliqchi ham katta suvga tushib ketgan odamning topish mushkulligidan va bevaqt xalaqit qilyotganidan zardalanadi. Nihoyat tanish bir ovoz eshitiladi: “dushmandan kattaroq, do‘stdan kichikroq soya ko‘z o‘ngimda qalqiydi. Endi hech narsasi qolmagan qimorbozday so‘nggi umidimni shu soyaga tikaman: - Do‘st, Halima yo‘qolib qoldi, sen uni ko‘rmadingmi?” U esa bir dumalab, qarg‘aga aylanadi va uchib ketadi. “Gullaru giyohlarning xayolini o‘g‘irlab uchayotgan kapalaklar ham, “katta orzusini yelkasida dast ko‘tarib, u yoqdan bu yoqqa yugurib yurgan chumolilar” ham o‘zlari bilan band, birov bilan ishi yo‘q. O‘zining yo‘qolib



qolganini va shuning uchun kechikib kelganini aytganda ishxonadagi bo‘lim boshlig‘i “vabodan qochgan kimsaday, ortiga qarab-qarab tez yurib ketadi”.

Hikoya bir yarim sahifa xolos. Undagi ma‘no shundoq tushunarli. Ya‘ni Navoiy hazratlari yozganlariday:

El netib topgay menikim, men o‘zimni topmamon... [7, 145]. Yoki Furqat nolasiday: “Adashgan it kabi nolon, qayon borgum bilolmasman”[8, 56]. Bu bir ruhiy holat. Ijodkorda bo‘ladigan dunyolarga sig‘mas qolish tuyg‘usi.

To‘plamdagi hikoyalar turli yillarda yozilgan. “Tugallanmagan hikoya” 1986-yilda bitilgan bo‘lsa, oxirgi hikoyalar 2013-yili yozilgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, shoira vaqti-vaqti bilan nazm sarhadiga sig‘magan fikrlarini nasr ipiga tizgan. Lekin bu bitiklarni butkul nasrdagi rostakam hikoyalar deb bo‘lmaydi. Chunki ularda shoirona o‘xshatishlar, poetik tasavvur ustunlik qiladi. Bu jihati ularni poeziyaga yaqinlashtiradi. Bularda yaxlit syujet gohida bor, gohida yo‘q, lekin syujetli deb topganimizda ham badiiy ifoda she‘riyatga tomon og‘ib turadi. Mana shunday xusuiyatlar jam bo‘lgani uchun ham bunday bitiklar uchun mansura shakli o‘ng‘ay keladi. Latish adibi E.Mejelaytisning fikricha, nasr – bu xuddi shu she‘riyatning keyingi taraqqiyotidir. Shuning uchun ham haqiqiy, teran proza hammavaqt poetik ovozga ega bo‘ladi, jaranglaydi. Har qanday badiiy asarni poeziya deb atasa bo‘la beradi. Poeziya – har qanday so‘z san‘atining zamini. [9. Mejelaytis E. “Tungi kapalaklar”, 1989, 294-bet.]. Men poetik hayratlanishdan mahrum bo‘lgan nasriy asarni hazm qila olmayman. Men esa mahallada ham o‘quvchi bilan xuddi she‘rdagidek gaplashish kerak, deb o‘ylayman (O‘sha joyda. 296-bet).

Abdulla Oripovning yozishicha, “shoirlarning she‘riyatga nasr xususiyatlarini olib kirish tajribasi – bu ishlar eplab qilinayotgan bo‘lsa, tabiiy hol deb qarayman. Chunki nasr xususiyatlari (yoki saj) xalqimiz dostonlarida qadimdan bor”[10. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. 175-bet.]. Taniqli adibimiz Erkin Vohidov go‘zal lirik meros yaratib qo‘yganiga qaramay, nasrga murojaat qilishni istaydi: “Hozir menga she‘rdan ko‘ra proza bilan yozish lozim, degan xayol tinchlik bermayapti. Balki bu his-tuyg‘ularimning, ko‘rgan-kechirganlarimning she‘rga sig‘masligidandir...[11. Vohidov E. Shoiru she‘ru shuur. 175-bet.].

Ko‘rinadiki har qaysi ijodkorda muayyan bir vaqtga kelib nasrdan – nazmga, nazmdan – nasrga o‘tish ehtiyoji tug‘iladi. Chunki “shoirlar ma‘lum bir yoshga yetishganida o‘zlarini nasrga” urishadi”, nega? Menimcha ular xuddi ana shu pallada o‘zlarini qaytara boshlaganlarini sezib qolishadi va ularda o‘z-o‘zini yangilash



ehtiyoji tug‘iladi. Shunda ichki bir tuyg‘u ularni prozaga yoki dramaturgiyaga undaydi”(O‘sha kitob, 167-bet).

Halima Ahmad mansuralaridagi sarlavhalar ham shoirona qo‘yilgan: “Nurdagi qorong‘ulik”, “Ninachi qanotidagi osmon”, “Aylana yolg‘izlik”, “Ichimdagi odam”, “Ajining tillo tarog‘i”, “Ishq gulining hidi”, “Kutishning sarg‘aygan fasli”, “Ruh olmoshlari”. “Yosuman gulining soyasi” va hokazo.

“... Osmonning yuragiga xanjardek qadalgan tog‘lar ostida Farhodning jasi har yili bahorda ko‘karadi. Bu beshafqat tog‘larni qurshab olgan yosuman gullar esa baxtiyor gullaydi: “ishq - bu o‘lim, o‘lim bu - ishq...” (“Yosuman gulining soyasi”). Shunday boshlangan mansura sevgini pisand qilmay, o‘zlari istaganga qizini uzatgan ota va onaga zorlanib iltijo qilganu, ammo iltijosi yerda qolgan qiz vidosi yanglig‘ tasvirlanadi. “Onam duxobadan ko‘rpa qaviydi. Barmog‘idagi yoqut uzugining ko‘zida yuragimning qoni chayqaladi. - Ona, ko‘ngilsizman! Onam ignani ko‘rpaning naq yuragiga tiqadi: - Ko‘ngling qayerda? - Yosuman gulining soyasida. - Menga odamning tilida gapir! - Bilmayman... - Aytib qo‘yay, ko‘nglingni topmasang, uning ko‘nglini topolmaysan...” “Dadam boshimni silaydi: - Qizim, tillaqoshlarningning toshlari qimmatbaho, feruzasi - baxt toshi, uni asragin. Baxtli bo‘lasan. Adashib kirgan qushdan qolgan bir dona pat aylanib yelkamga qo‘nadi: - Baxtning bahosi qancha, dada? Dadamning kiprigiga bir tomchi jonim ilinadi... Bejavob qolgan savolim ikki dunyoni to‘ldiradi.”

To‘plamdagi barcha hikoyalar xuddi she‘rday o‘qiladi, go‘yo mutolaa chog‘ida mayin bir kuy taralib turganday. Bu kuy hikoya mazmuniga esh suzayotganday, ruhni allalaydi go‘yo. Va siz qisqa hikoyada ham katta dardlarni, alamlarni, fojialarni, quvonchu g‘alabalarni ham, cheksiz olam mahobatini ham his qila olasiz.

Xulosa. Tahlillar ko‘rsatadiki, ijodkor har doim poetik mazmunga xos shaklni izlaydi. Ko‘pincha mazmun va shakl birga tug‘iladi. Muhimi, tanlangan shakl mazmunni yetkaza olsa bas. Bitikda ma‘no go‘zal va betakror bo‘lishi lozim. Muhimi shu. “Ani nazm etki, tarhi toza bo‘lg‘ay, ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay”, - deb yozganlarida Navoiy aynan ta‘sirchan poetik fikrni, badiiy betakror tasvirni ko‘zda tutganlar. [12. “Farhod va Shirin”, 14-bet].

Halima Ahmad mansuralarda she‘rga sig‘magan, romanlarda, qissalarda aks etadigan dardlarni ham, bir oniy lahzada ro‘y beradigan ilhomli she‘rlarni ham aks ettira olgan. Bitiklariga musiqiylikni, ta‘sirchanlikni, mushohadakorlikni omuxta qila olgan. Shundan ular ravon o‘qiladi, ham nasr, ham nazmning uyg‘unlikdagi go‘zalligini his qiladi kitobxon.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳалима Аҳмедова. Ёсуман гулининг сояси. Т. Akademnashr. 2013. - 128 б.
2. Эйхенбаум Б. О литературе. М., “Советский писатель”, 1987, с. 446.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент. 1980. - 392 б.
4. Аристотель. Поэтика. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. (Рус тилидан Умнат Тўйчиев ва Маҳкам Маҳмуд таржималари). - 150 б.
5. Форобий Абу Наср. Шеър санъати. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979,- 198 б.
6. Иброҳим Ғафуров. Илтижо. Мансуралар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. - 176 б.